

O'ZBEK TILIDAGI TAXMIN YOKI MUMKINLIKNI IFODALAYDIGAN ANALITIK IFODALAR ORASIDAGI FARQLAR¹

Kirish. Oldingi ilmiy tadqiqotlarda o'zbek tilidagi '-sa kerak' yoki '-(i)sh mumkin' ma'nolari yoritib berilgan. Lekin, bu ikki ifoda morfologiya va sintaksis jihatdan tahlil qilinmagan. Bu maqolada bu ikki ifodani 'subyektivlik' (Palmer 1986: 16) jihatdan korpus va intervyu tadqiqotlari orqali tahlil qilaman. Shu tahlil natijasida shunday xulosa qilaman: '-sa kerak' suhbatchi o'zi to'g'ri deb o'ylagan voqeani ifodalash uchun foydalanadi, demakki, ushbu voqeaning subyektivligi baland. Aksincha, '-(i)sh mumkin' shu voqea to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishi mumkinligini ifodalaydi, shu sababli bu voqeaning subyektivligi pastroq.

1. Oldingi ilmiy tadqiqotlar va muammolarni ko'rsatish

O'zbek tilida (Turkiy tili, Janubi-Sharq guruhi) suhbatchi shu suhbatlashadigan kunda yomg'ir yog'ishini taxmin qilganda, kesim o'ziga '-sa kerak' (1) yoki '-(i)sh mumkin' (2) degan ifodalar qo'shiladi.

(1) *Bugun yomg'ir yog'sa kerak.*

(2) *Bugun yomg'ir yog'ishi mumkin.*

Oldingi ilmiy tadqiqotlarda "-sa kerak" ifodasi kutilgan harakat (Bodrogligeti 2003: 876), Gumon, tashvish (Abdurahmonov et al. 1976: 110), taxmini (Kononov 1960: 398) ifodalashi yozilgandi. Bu holat quyidagi 3-misol Abdurahmonov va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida (1976: 110) ko'rsatiladi.

(3) *Qo'rqan bo'lsa kerak! — dedi ohista Pavel.*

(Abdurahmonov va boshq. 1976: 110)

V-(i)sh mumkin esa mumkinlik (Bodrogligeti 2003: 853, Kononov 1960: 401), ruxsat ma'nosini (Kononov 1960: 401) ifodalashi yozilgan. Lekin bu tahlillarda imkonlik ma'nosi jihatidan yoritib berilmagan. Lekin, imkonlik ma'nosini ifodalayotganni 6-misolda ko'rsatish mumkin. 4-misolda mumkinlik, 5-musolda ruxsat ifodalangan.

(4) *Unda ochlikdan o'lish mumkin.* (Bodrogligeti 2003: 855)

(5) *Mashina tayyor. Jo'nashingiz mumkin.* (Bodrogligeti 2003: 855)

(6) *Bu ishni ikki kunda bajarish mumkin.* (Kononov 1960: 401)

Bu maqolada ruxsat (5), imkonlik (6) ifodalanayotgan misollarni tahlil qilmayman.

HIDAKA (2013) O'zbek tilida yozilgan misollari to'plami. O'zbek tilida ona tili sifatida so'zlashuvchi odam Kazama (2011) tomonidan yozilgan yapon tilidagi tadqiqot misollarini o'zbek tiliga tarjima qilib oldi. Bu maqolada faqat modallik haqidagi musollarni (§2.3; pp.447–484) ko'rsataman.

(7) *taxmin, gumon:*

U odam bugun kelmasa kerak.

(8) *taxmin, gumon:*

Ular hali ham kelmayapti, balki mashinalari yo'lda buzilgan bo'lsa kerak.

(9) *mumkinlik:*

Hozir tushlik vaqti bo'lgani uchun, u odam uyda bo'lishi ham bo'lmasligi ham mumkin.

Kazama (2011) maslak, taxmin, gumon, mumkinlik degan to'rt atama ehtimollikni ifodalaydi deb hisoblaydi. Bunda ehtimollik darajasi maslak>taxmin>gumon> mumkinlik degan tartibda harakat ehtimolliqi past deb sezishini hisoblaydi. (10) da o'zbek tilidagi ehtimollik uchun ifodalarni ko'rsataman.

(10) Kazama (2011) fikriga asoslagan o'zbek tilidagi ehtimollik darajasi uchun tartib

¹ Bu maqolaning mazmuni yapon tilida yozilgan 日高 (2023) ning qisqacha mazmunidir.

maslak > taxmin yoki gumon > mumkinlik
 -(i)sh kerak > -sa kerak (7), (8) > -(i)sh mumkin (9)

1- va 2-misolda ko'rsatilgan, '-sa kerak' va '-(i)sh mumkin' bir voqea-hodisa uchun ehtimollikni ifodalaydi. Oldingi ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, har bir ifodalar farqli ma'noni ifodalaydi ((3) ~ (6)). 10-misolda ko'rsatilganidek faqat ma'no jihatdan emas, ehtimollik darajasida ham farq bor. Lekin, oldingi ilmiy tadqiqotlarda bu ikki ifoda morfologiya va sintaksis jihatdan tahlil qilinmagan. Bu maqolamda ushbu ikki ifodani bir xil me'yorda tahlil qilaman. Shu tahlil natijasida bu ikki ifodaning morfologik harakteriga tegishli semantik harakterini aniqlayman.

Maqolada 'subyektivlik' (subjectivity; Palmer 1986: 16) jihatdan '-sa kerak' va '-(i)sh mumkin' ifodalangan misollarni tahlil qilib, ularni 'subyektivlik'dan farqli ravishda, ya'ni ehtimollik jihatidan ham tahlil qilib, semantik harakterini aniqlayman.

Palmer (1986: 16) modallik suhbatchidagi subyektiv fikrning grammatik shaklga ko'chirilgan formasi ekanligini ta'rif qiladi. Shuning uchun, subyektivlik modallikda shakllarni tanlashga tegishli fikr deb hisoblanadi. Men shunday o'ylaymanki, epistemik modallikdagi shakllarni tanlashga subyektivlik aloqador, va 'suhbatchining suhbat paytidagi es-hushini ifodalaydi' degan subyektivlikga modallik ifodalaydigan shakllardagi morfo-sintaktik harakter aloqador. Shu fikrni isbotlash uchun, keyingi qismda internet korpus sahifasidan olingan misollarni morfo-sintaktik harakter jihatidan tahlil qilib, '-sa kerak' va '-(i)sh mumkin'ni ifodalaydigan ikki ifoda orasidagi subyektivlik balandligi jihatdan farqlarni topaman.

2. Internet korpus sahifasi tadqiqoti

Bu maqola uchun Sketch Engine (<https://www.sketchengine.eu/>) ichidagi Turkic web – Uzbek nomli veb korpusidan foydalandim. Ifodalarni izlash yo'li to'g'risidagi batafsil ma'lumotni HIDAKA (2023) ni ko'rishingiz mumkin. Quyidagi birinchi jadvalda ushbu korpusdan olingan misollarining umumiy soni ko'rsatiladi.

Jadval 1: Internet korpus sahifasidan olingan musollarining soni

Shakl	Soni
V-sa kerak	1297
V-ma-sa kerak	534
V-(i)sh mumkin	2974
V-maslik mumkin	639

Birinchi o'rinda, "-sa kerak" va "V-(i)sh mumkin" dan so'ng "e-" yoki "bo'l-" qo'shimchalari qo'shiladigan holat haqida gapirib o'taman. Korpus sahifasidan olingan misollari orasida (1831 misol) "-sa kerak"dan so'ng "e-" yoki "bo'l" qo'shimchalari qo'shilgan holat to'g'risida misol yo'q. Ammo, '-(i)sh mumkin'dan so'ng e- yoki bo'l qo'shimchalari

qo'shilgan misollar keltirilgan. 11-misolda 'V-(i)sh mumkin'dan so'ng "edi" joylashgan. 12-misolda "bo'lgan" so'zi 'V-(i)sh mumkin' aniqlovchiga kesim vazifasida keladi.

(11) ... *sog'liqni saqla-sh, transport va xizmat ko'rsatish sohalorida ham qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin edi.* (ayol.uz)

(12) *Davlat, jamiyat va shaxsga jiddiy ekologik, ijtimoiy va boshqa zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ekologik xavflarni...* (meteo.uz)

Ikkinchi o'rinda, 3ta yuklama ("da", "a", "mi") ga to'xtalib o'taman. "da" yuklamasi ta'kidni ifodalaydi (Bodrogligeti 2003: 1019-21). "a" yuklamasi tasdiq ifodalaydi (Nakajima 2015: 159). "mi" yuklamasi so'roq gapda ishlatiladi. Quyida "V-sa kerak"ga "da" (13), "a" (14) ishlatilgan misollarni keltiraman. Lekin, "mi" yuklamasi ishlatilgan misol yo'q.

(13) *Nimanidir tushunmagan bo'lsam kerak-da.* (filmlar.uz)

(14) *O'shanda qo'rqqan bo'lsangiz kerak-a?* (uzbekistonovozi.uz)

Yuqoridan farqli ravishda, "-(i)sh mumkin" misollari (3613 misol) da "da" va "a" qo'shilgan

Jadval 2: Internet korpus sahifasi tadqiqotning xulosasi

	-da, -a	-mi	e-, bo'l-
V-sa kerak	○	×	×
V-(i)sh mumkin	×	○	○

misol yo'q. Lekin, "mi" qo'shilgan misol (15) bor.

(15) ... *"Osteoporoz: nasldan naslga o'tishi mumkinmi?" kabi qiziqarli maqolalarni o'qishingiz*

mumkin. (shou-biznes.uz)

Ikkinchi jadvalda yuqoridai tahlil birgalikda ko'rsatiladi.

3. Intervyu tadqiqoti

Bu qismda ikki xil tadqiqot o'tkaziladi.

1. To'g'ri va noto'g'ri gaplar qatoriga kirilgan bir gapning tarjimasini;
2. Ravishdoshini saqlab, kesimini o'zgartirgan gapning ishlatilishi tahlili

Interbyu beruvchi o'zbek tilini ona tili sifatida gapiruvchi, 1989-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan erkak kishi.

Birinchi, Miyake (1992, 1995) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga asoslanib, tadqiqotni o'tkazaman. Miyake (1992, 1995) yapon tilidagi "darou" ("sa kerak"ka o'xshaydi) va "kamosirenai" ("(i)sh mumkin"ga o'xshaydi)" orasidagi farqlarni aniqladi. Miyake (1992, 1995) quyidagi uchta sharoitda ham faqat "kamosirenai" ishlatiladi deb aytadi: 1. 16-misolda ko'rsatilgandek, ayni paytda to'g'ri deb o'ylagan fikrni ifodalamoqchi bo'lganda, "darou" ishlatilmaydi.

(16) Amewa hurukamosirenaisi, huranaikamosirenai.

'yomg'ir yog'ishi ham mumkin, yog'masligi ham mumkin.'

2. 17-misolda ko'rsatilishicha, suhbatchi bir voqea to'g'ri bo'lishga ishonlaydi, aslan shu noto'g'ri bo'lish mumkinligi bo'lganda, "darou" ishlatilmaydi.

(17) Sorewa hontoukamosirenaiga, usodato omou.

"Bu yolg'on bo'lishi ham mumkin, lekin men rost deb o'ylayman".

3. 18-misolda ko'rsatilishicha, shubatchi boshqa oladigan harakatini tinglovchiga aytib berganda, 'darou' ishlatilmaydi.

(18) A: "Ashitamo denwasitekureru?"

'Ertaga ham telefon qilasanmi?'

B: "Ashitawa denwasinaikamosirenai."

'Ertaga telefon qilmasligim mumkin'.

(16)~(18) misollardagi yaponcha misollarni ona tili bo'lib o'zbek tilida gapirayotgan erkakga ko'rsatib, o'zbek tiliga tarjima qilib oldim. Shu tufayli hamma musol "(i)sh mumkin"da yozildi. Men shu javob ichidagi kesimni '-sa kerak'ga o'zgartirib, shu misol ishlatilish darajasi haqida undan so'radi. U hammasini qabul qilolmayman deb javob berdi. Shu tadqiqot natijalarida "(i)sh mumkin" bir ehtimollik bo'lib, to'g'ri ekanini ifodalashni aniqladim.

Ikkinchi, ravishdoshini saqlab kesimini o'zgarilgan gapning qabul qilinishi haqidagi tadqiqot o'tkaziladi. 10-misolga ko'ra, "-sa kerak" "(i)sh mumkin"dan balandroq ehtimollikni ifodalaydi. Avvalo, balandroq ehtimollikni ifodalaydigan "-sa kerak"ning musollarni veb sahifalaridan izladim. Shundan keyin, shu misollardagi kesimlarni "(i)sh mumkin"ga o'zgartirib, ushbu gaplarning ishlatilish darajasini intervyu beruvchidan so'radim. 19-misolda baland ehtimollikni ifodalaydigan ravishdosh "shubhasiz" ishlatilgan misolini, 20-misolda past ehtimollikni ifodalaydigan ravishdosh "balki" ishlatilgan misolini keltirib o'taman.

(19) *Har qanday o'qituvchi uchun, shubhasiz bu eng qiziq masala bo'lsa kerak.*

(<http://marifat.uz/marifat/ruknlr/umumii-urta-talim/3535.html>

[oxirgi ko'rgan kuni: 27/04/2023])

(20) *Balki katta bo'lib onamni qadrini yaxshiroq bila boshlaganim sabab bo'lsa kerak.*

(<https://mobile.twitter.com/nizomuddinova02/status/1539284436327489536>

[oxirgi ko'rgan kuni: 27/04/2023])

19- va 20-misollardagi kesimni -(i)sh mumkin'ga o'zgartirib, ushbu gaplarning ishlatilish darajasini intervyu beruvchidan so'rasam, 19-misol ishlatilishi mumkin, lekin, 20-misol mumkin emas degan javobini oldim. Shu tadqiqot natijalarida shuni aytishim mumkinki, "-sa kerak" ravishdosh ifodalanadigan ehtimollikga qaramasdan birga sodir bo'ladi. Aksincha, "(i)sh mumkin" faqat pastroq ehtimollikni ifodalaydigan ravishdosh bilan sodir bo'ladi. Uchinchi jadvalda yuqoridai tahlil birlikda ko'rsatiladi.

Jadval 3: Interbyu tadqiqotning xulosasi

Shakl	to'g'ri va noto'g'ri gaplar	Ravishdosh bilan sodir bo'lish
-------	-----------------------------	--------------------------------

	qatoriga kirilgan bir gapning tarjimasida	past ehtimollik	baland ehtimollik
<i>V-sa kerak</i>	×	○	○
<i>V-(i)sh mumkin</i>	○	○	×

4. Xulosa

Birinchi o‘rinda “-sa kerak” to‘g‘risidagi xulosamni aytaman. Internet korpus sahifasi tadqiqotida “-da” va “-a” joylashishi, lekin, “-mi” joylashmasligini aniqlayman. Bodrogligeti (2003: 1019-21)ga ko‘ra, “-da” harakatning kerakligi, to‘g‘riligini kuchaytiradi. “-a” tasdiq foydalaydi. Demakki, suhbatchi to‘g‘ri deb o‘ylagan voqea uchun shu ikki yuklamadan foydalanadi. Shuning uchun, “-sa kerak” ham suhbatchi to‘g‘ri deb o‘ylagan voqeani ifodalash uchun ishlatiladi. Shunday ekan “-mi” “-sa kerak” bilan birga foydalanmasligini izohlashi mumkin. Chunki “-mi” yuklamasidan suhbatchi to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini tushunmagan voqeani ifodalashda foydalanadi. “-sa kerak” dan so‘ng “e-“ yoki “bo‘l-“ qo‘shimcha joylashmaydi. Chunki “-sa kerak” zamon bo‘yicha tuslanmaydi va aniqlovchi bo‘lib kelmaydi. Demakki, “-sa kerak” ‘suhbatchining suhbat paytidagi es-hushini ifodalaydi’ degan subyektivlik baland bo‘ladi.

Intervyu tadqiqotida to‘g‘ri va noto‘g‘ri gaplar qatoriga kiritilgan bir gapning tarjimasida ‘-sa kerak’ foydalanmaydi. Shunig uchun, “-sa kerak” mumkinlikni emas, balki suhbatchi shu voqea to‘g‘ri bo‘ladi degan fikrini ifodalaydi. Ravishdosh jihatidan shuni ham aytamanki, “-sa kerak” ravishdosh ifodalanadigan ehtimollikga qaramasdan birga sodir bo‘ladi, ammo, “-(i)sh mumkin” faqat pastroq ehtimollikni ifodalaydigan ravishdosh bilan sodir bo‘ladi.

Ikkinchi o‘rinda, “-(i)sh mumkin” to‘g‘risida xulosa aytaman. Internet korpus sahifasi tadqiqotida “-da” va “-a” joylashmasligi, lekin, “-mi” joylashishini aniqlayman. Chunki, ‘-(i)sh mumkin’ suhbatchi to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini tushunmaydigan voqeani ifodalashda foydalanadi. Shu borada, “-(i)sh mumkin’ dan so‘ng “e-“ yoki “bo‘l-“ qo‘shimcha joylashadi. Chunki “-(i)sh mumkin” zamon tomonidan tuslanadi va aniqlovchi bo‘lib xizmat qiladi. Demakki, “-(i)sh mumkin”da suhbatchining suhbat paytidagi es-hushini shubhasiz ifodalanmaydi, ya‘ni subyektivligi pastroq bo‘ladi.

Intervyu tadqiqotidagi to‘g‘ri va noto‘g‘ri gaplar qatoriga kirilgan bir gapning tarjimasida faqat “-(i)sh mumkin” foydalanadi. Shunig uchun, “-(i)sh mumkin” shu voqea to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lish mumkinligini ifodalaydi. Bundan tashqari, “-(i)sh mumkin” faqat past ehtimollikni ifodalaydigan ravishdosh bilan sodir bo‘ladi. Chunki “-(i)sh mumkin” shu voqea to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lish mumkinligini ifodalaydi.

Bu maqolaning xulosasi sidatida shuni aytishim mumkinki, “-sa kerak” suhbatchi to‘g‘ri deb o‘ylagan voqeani ifodalash uchun ishlatiladi, demaki subyektivligi baland. Aksincha, “-(i)sh mumkin” shu voqea to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lish mumkinligini ifodalaydi, shu tufayli subyektivligi past.

Minnatdorchilik

Ushbu ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda meni qo‘llab-quvvatlagan JSPS Granti JP22J01538 ga minnatdorchilik bildirmoqchiman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Abdurahmonov, G. A. va Sh. Sh. Shoabdurahmonov, A. P. Hojiyev (1976) *O‘zbek tili grammatikasi II-tom Sintaksis*. Toshkent: O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti.

Bodrogligeti, András J. E. (2003) *An academic grammar of Modern Literary Uzbek*. München: Lincom Europa.

日高晋介 HIDAKA Shinsuke (2013) 「ウズベク語：補遺データ (受動表現, ヴォイスとその周辺, モダリティ) (データ)」 『語学研究所論集』 18: 467–85.

日高晋介 HIDAKA Shinsuke (2023) 「ウズベク語における推定・可能性を表す分析的表現の差異：V-sa kerakとV-(i)sh mumkinに注目して」 『北東アジア諸言語の記述と対照』 3: 79–98.

- 風間伸次郎 KAZAMA Shinjiro (2011) 「まえがき—テーマ企画: 特集「モダリティ」」 『語学研究所論集』 16: 29–55.
- Kononov, Andrej N. (1960) Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo jazyka. Moskva, Leningrad: Izdatel'stvo akademii nauk SSSR.
- 三宅知宏 MIYAKE Kazuhiro (1992) 「認識的モダリティにおける可能性判断について」 『待兼山論叢 日本学篇』 26: 35–47.
- 三宅知宏 MIYAKE Kazuhiro (1995) 「カモシレナイとダロウ — 概言の助動詞③ —」 宮島 達夫・仁田義雄編 『日本語類義表現の文法(上)』 東京: くろしお出版. 197–200.
- 中嶋善輝 NAKAJIMA Yoshiteru (2015) 『簡明ウズベク語文法』 大阪: 大阪大学出版会.
- Palmer, F. R. (1986) Mood and Modality. Cambridge: Cambridge University Press.

*A.Ibayev,
SamDChTI o'qituvchisi*

TOBE KOMPONENTLI MURAKKAB SINTAKTIK QURILMALARNING STRUKTUR XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada murakkab sintaktik qurilmalar va ularning struktur tahlili derivatsion aspekta amalga oshirilgan. Bunda MSQning derivatsion jarayonini BI (bevosita ishtirokchilar) guruhiga ajratib, shajara usulida ko'rib chiqilgan. Nazariy fikrlar ingliz va o'zbek tilidagi misollar bilan asoslangan.

Kalit so'zlar: MSQ, operator, operand, derivat, BI metodi, kontakt bog'lanish, distant boglanish.

Ma'lumki, murakkab sintaktik qurilmalarni tilshunoslar mustaqil sintaktik birlik sifatida talqin qilishadi va ularning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatishadi:

1. MSQlar sodda gapda ifoda etib bo'lmaydigan bitta umumiy yoki bir nechta fikr ifodasini beradi;
 2. Uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabatlar o'ziga xosdir hamda hokim va tobelik munosabatning ifodalanishi bilan xarakterlidir;
 3. Tobe komponentli MSQlarning qismlari o'rtasidagi bog'lanish bir tomonlama, ikki tomonlama yoki o'zaro muvozanatlashgan xususiyatga ega;
 4. MSQ komponentlari o'rtasidagi bog'lanish vositalari sifatida bog'lovchilar va korrelyatorlar (bog'lovchi o'rnidagi boshqa vositalar)ni qayd etish mumkin;
 5. MSQ komponentlari turli xil o'ziga xos kompozitsion xususiyatlarga ega. Mazkur xususiyatlar ularni boshqa sintaktik birliklar bilan formal-funksional jihatdan qiyoslaganda yaqqol ko'zga tashlanadi.
 6. Tobe komponentli MSQlar yopiq strukturaliligi bilan ajralib turadi. Masalan, ikki komponentli tobe munosabatli MSQlar tarkibiga yana bir yoki bir nechta predikativ birliklarning qo'shilishi mazkur tobe komponentli MSQni teng munosabatli MSQga yoki makromatnga aylantirishi mumkin.
 7. Tobe komponentli MSQlarni teng komponentli MSQlardan yana bir farqli jihati shundaki, ularda parallel munosabatning kuzatilmaligidadir¹.
 8. Derivatsion nuqtai nazardan, tobe komponentli MSQlarda biz teng komponentli MSQlardan farqli o'laroq, dublooperator hamda polioperatorlik xususiyatlarni kuzatamiz.
 9. Tobe komponentli MSQlarning operandlari o'rtasida funksional tenglik kuzatilmaydi.
- Darhaqiqat, tobe komponentli MSQlar bir butun yagona sintaktik birlikni tashkil qiladi. Derivatsion aspektda tahlil qiladigan bo'lsak ham bitta derivat sifatida olib qaraymiz:

¹. Qarang: Зиброва Н.В. Сложноподчинённые предложения в аспекте понятия синтаксического поля. Автореф. канд.дис. – Елец, 2008. – С.8-9.